



JINOYAT QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN YANGILIKLAR TAHLILI.

Muallif: Abdumurodov Azizbek Yusuf o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti talabasi.

Telefon raqami: +998979852110

E-mail: abdumurodovazizbek2110@gmail.com

Annotatsiya

Jinoyat kodeksining inson hayoti, erkinligi va daxlsizligiga qarshi qaratilgan eng muhim moddalari qatoriga 103-modda (O'zini o'zi o'ldirish darajasiga olib kelish), 129-modda (O'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish) va 135-modda (Odam savdosi)larni kiritsak xato bo'lmaydi degan fikrdaman. Maqolada ushbu moddalarni eski va yangi tahrirlarini tizimli va qiyosiy tahlil qilamiz. Tahlilda faqatgina modda matnidagi o'zgarishlar bilan cheklanib qolmasdan, ularning ahamiyati, O'zbekistondagi statistika va bu o'zgarish nima uchun kerak bo'lganligi kabi savollarga javob topamiz. Shuningdek, har bir jinoyatning tarkibiy elementlarini (obyekt, obyektiv tomon, subyekt, subyektiv tomon) ochib bergan holda, qonunchilikning eski tahriridagi jiddiy huquqiy bo'shliqlarni ko'rsatib ham o'tish zarur.

Kalit so'zlar. Jinoyat kodeksi, jinoyat tarkibi, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga olib kelish, uyatsiz-buzuq harakatlar, odam savdosi, yangi tahrir, qonunchilik evolyutsiyasi, voyaga yetmaganlar huquqlari, ijtimoiy tarmoqlar, ruhiy zo'ravonlik, sanksiyalar, jinoiy javobgarlik, kvalifikatsiya, jinoiy statistika.



103-modda. O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga olib kelish^{1,2}

Jinoyat tarkibi. Birinchi navbatda, ushbu jinoyat tarkibini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu yerda obyekt inson hayoti va uning ruhiy sog‘ligi. Obyektiv tomondan ushbu jinoyat mutassil ravishda shaxsni sha‘n va qadr-qimmatini kamsitish va rahmsiz munosabtda bo‘lish yoki qo‘rqitishda ifodalanadi. Subyekt esa JK 17-moddaga ko‘ra 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs. Subyektiv tomondan, albatta, qasddan sodir etiladi.

Eski tahrir va muammolar. Oldingi tahrirda ushbu jinoyatni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashda **jabrlanuvchining subyekt bilan aloqasi** asos bo‘lgan. Ya‘ni jabrlanuvchi biron bir jihatdan subyektga qaram bo‘lmagan bo‘lsa bu moddaning 1-qismi bilan, teskari holatda esa 2-qism bilan og‘irroq jazo tayinlangan. Bunday yondashuv o‘ta **yuzaki** degan fikrdaman. Chunki jabrlanuvchining doirasi bundan ancha kengroq bo‘lishi mumkin, masalan voyaga yetmaganlar alohida belgilanishi kerak deb o‘ylayman.

Shuningdek, yana bir qancha **kamchiliklar** mavjud bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, Axborot asrida yashayotgan ekanmiz, **ijtimoiy tarmoqlar** orqali shaxslarni tahqirlash yildan-yilga ko‘paydi va bu turdagi jinoyatni sodir etish holatlari ham paydo bo‘la boshladi. Ammo ushbu masala moddaga kiritilmagan va huquqiy jihatdan tartibga solinmagan. Yana bir muhim jihat bu obyektiv tomon harakatlari qatoriga **qo‘rqitish masalasi kiritilmaganligi**. Endi bu holatni hech qanday davr yoki oldin mavjud bo‘lmagan deb oqlab bo‘lmaydi. Bu shunchaki e‘tiborsizlik va masuliyatsizlik deb o‘ylayman. Qo‘rqitish qismi mavjud bo‘lmaganligi tufayli ko‘plab ruhiy zo‘ravonlik holatlari ushbu moddaga doirasiga

¹ Eski versiya: <https://lex.uz/docs/-111453?ONDATE=01.04.1995%2000#-3262008:~:text=103-,%2D,-modda.%20%CA%BBzini%20o%CA%BBzi>

² Yangi versiya: <https://lex.uz/docs/-111453#:~:text=103-,%2D,-modda.%20%CA%BBzini%20o%CA%BBzi>



kirmay qolgan bo'lishi ehtimoli bor. Chunki, shantaj qilish yoki sirini oshkor qilish bilan tahdid qilish ham buni ichiga kirib ketadi.

Yangi tahrir va tuzatishlar. Amaldagi yangilangan moddaga o'tadigan bo'lsak, yuqorida sanab o'tilgan kamchililarni tuzatilganligi ko'rishimiz mumkin. Jumladan, yangi versiyada **o'g'irlashtiruvchi holatga olib keladigan harakatlar va jabrlanuvchilar doirasi kengaytirildi.** Voyaga yetmagan va homilador ayollarning huquqlari yanada kuchliroq himoyalaniishi ta'minlandi. Shuningdek, **qo'rqitish holati ham moddaning dispozitsiyasida** mustahkamlab qo'yildi. Bu tergov va surishtiruv faoliyati va jinoaytni kavlifikatsiya qilish jarayonini ancha aniqlashtiradi degan fikrdaman. Chunki, tovlamachilikda ham aynan qo'rqitish masalasi bor, lekin u yerda asosiy maqsad moddiy manfaat ko'rish, faqatgina ruhiy ezish emas. **Internet tarmog'i orqali** ushbu jinoyatni sodir etish ham moddada alohida band sifatida belgilab qo'yilish orqali modda rivojlanayotgan dunyoga mos ravishda o'zgarayotganligini ko'rishimiz mumkin. So'nggi masala bu **sanksiya** qismi bo'ladi. Oldingi tahrirda jinoyatchi axloq tuzatish ishlari jazosi bilan qutulishi mumkin bo'lgan, ammo hozir bu sanksiya turi olib tashlandi.

Statistika. Bu jinoyat turimansub bo'lgan hayotga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq ochiqqlangan. Ammo, aynan o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish(yoki umuman boshqa turlar) jinoyatining rasmiy statistikasi mavjud emas. Odam o'ldirish va o'ldirishga suiqasd qilish holatlari 2024-yil 273 tani tashkil etgan³.

129-modda. O'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish^{4 5}

³ Stat.uz huquqbuzarlik ma'lumotlari: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_805.pdf

⁴ Yangi tahrir: <https://lex.uz/docs/-111453#-174597~:text=129,-%2D,-modda.%20O%CA%BBn%20olti>

⁵Eski tahrir: <https://lex.uz/docs/-111453?ONDATE=01.04.1995%2000#-6437636~:text=129,-%2D,-modda.%20O%CA%BBn%20olti>



Jinoyat tarkibi. Ushbu jinoyatning tarkibini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu yerda obyekt 16 yoshga to‘lmagan shaxslarning shaxsiy daxlsizligi. Obyektiv tomondan ushbu jinoyat jabrlanuvchiga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilishda ifodalanadi. Subyekt esa JK 17-moddaga ko‘ra 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs. Subyektiv tomondan qasddan sodir etiladi.

Eski tahrir va muammolar. Oldingi tahrirga e‘tibor bersak, qilmishni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashda jinoyatning **zo‘rlik ishlatilganligi yoki yo‘qligi** asosiy omil bo‘lgan. Bunday qismga ajratish mantiqan to‘g‘ri, ammo juda umumiy va ko‘plab detallar aniqlashtirilishi zaruriyatini keltiradi deb o‘ylayman.

Jumladan, **subyektning jabrlanuvchiga aloqasi** yoki boshqa ko‘plab bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlar bu tahrirda keltirilmagan. Ya‘ni jabrlanuvchiga yot begona tomonidan zarar yetkazilishi va unga yaqin shaxslar yoki u ishonib topshirilgan shaxslar o‘rtasida tafovot mavjud. Shuning uchun bu masala moddada keltirilishi zaur edi.

Shuningdek, obyektiv tomonning belgilari ham keltirilmagan. Bular jumlasiga, **aldash yoki qo‘rqitish** masalasi kirib ketadi. Bu jihatlar subyektning o‘z niyatiga yetishish uchun oldindan tayyorlanib, qo‘llaydigan harakatlarini bir reja sifatida tuzib olganligini ko‘rsatib beradi. Shuning uchun bunday harakatlar o‘g‘irlashtiruvchi holat bo‘lishi shart.

Yana bir jihat bu **sanksiya** masalasi. JK da eng ko‘p o‘zgaradigan qism shu bo‘lganligi uchun ko‘p moddalarda alohida tahlil qilish zarur emas deb o‘ylayman. Ammo, mavzuyimizdagi o‘ta past niyatli va axloqan buzuvchi jinoyatni sodir etganligi uchun 2-3 yil axloq tuzatishlari bu butun tizimdagi mavjud bo‘lgan kamchilik deb o‘ylayman.



Yangi tahrir va tuzatishlar. Yangilangan amaldagi versiyaga o‘tadigan bo‘lsak, mavjud bo‘lgan muammolarni hal etilganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, endilikda subyekt jabrlanuvchining qarindoshi yoki tarbiyachisi bo‘ladigan holat og‘irlashtiruvchi bandlar sifatida belgilandi. Bu jinoyatchiga jazo tayinlash masalasini bir muncha yengillashtiradi. Qo‘rqitish yoki aldash yo‘li bu jinoyatni sodir etish ham alohida bandlar sifatida belgilab qo‘yildi. Eng katta tuzatishlardan biri sanksiyaning kinoyatga mutanosib ravishda o‘g‘irlashtirilganligidir, endilikda jinoyatchiga faqatgina ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazolari qo‘llanishi mumkin.

Shuningdek, ushbu jinoyatga **yaqin turadigan boshqa jinoyatlarni**(masalan, nomusga tegish) oldin sodir etgan avtomatik shaxslar ushbu modda 2-qismi bilan jazolanadilar. Bu mening fikrimcha JK moddalar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadorlikni kuchaytiradi va kodeksni bir tizim sifatida ishlatishidan darak bermoqda.

Statistika. Ushbu jinoyat turi mansub nomusga tegish jinoyatlari statistikasi Milliy Statistika qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan⁶. Ammo aynan 16 yoshga to‘lmaganlar uchun hisobat berilmagan. Qalampir.uz nashriga ko‘ra 2025-yilda ushbu jinoyat 2024-yilgidan 36 foizga oshgan⁷. Ammo buni rasmiy statistika sifatida qabul qila olmaymiz

135-modda. Odamlardan foydalanish uchun ularni yollash⁸.

⁶ https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_2754.pdf

⁷ <https://qalampir.uz/uz/news/voyaga-yetmaganlarga-uyat-siz-%D2%B3arakatlar-k-ilganlik-uchun-zhavobgarlik-kuchaytiriladi-124214>

⁸ <https://lex.uz/docs/-111453?ONDATE=01.04.1995%2000#-1393344:~:text=135-,%2D,-modda.%20Odamlardan%20foydalanish>



135-modda. Odam savdosi⁹.

Jinoyat tarkibi. Ushbu jinoyatning tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, bu yerda obyekt shaxsning daxlsizligi va ozodligi. Obyektiv tomondan ushbu jinoyat eski tahrirda shaxsdan noqonuniy maqsadlarda foydalanish uchun aldab yollashda ifodalanadi Yangi tahrirda esa bunga olib-sotish maqsadi va tashish, yashirish va topshirish qismlari qoshilgan. Subyekt esa JK 17-moddaga ko'ra 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs. Subyektiv tomondan qasddan sodir etiladi.

Eski tahrir va muammolar. Oldingi tahrirga e'tibor bersak, bu amaldagi moddadan tubdan farq qilishi ko'rishimiz mumkin. Uning mazmuni shaxsni aldash yo'li noqonuniy maqsadlarda foydalanish. Bu tahrirning qamrov doirasi o'ta tor bo'lganligidan, amaldagi moddaning bir bandiga aylanib ketganligi ko'rishimiz mumkin.

Unga kiritilishi va tuzatilishi zarur bo'lgan juda ko'p masalalar mavjud edi. Jumladan, obyektiv tomon **faqatgina yollash** bilan cheklanmasligi kerak, chunki bu turdagi jinoyatda boshqa harakatlar(yashirish, topshirish) va ishtirokchilar mavjud bo'lishi tayin. Shuningdek, **eksplutatsiyaning ko'plab turlari** mavjud(mehnat, fohishalik) va ulardan faqatgina shahvoniy va boshqa maqsadda degan umumiyashtirib ketish noto'g'ri deb o'ylayman.

Eski tahrirda **Odam savdosi nomli katta tizimli jinoyat tushunchasi mavjud emas** degan xulosaga kelsak bo'ladi.

Yangi tahrir va tuzatishlar. Amaldagi tahrirdagi eng birinchi ko'zga tashlanadigan o'zgarish, albatta moddaning nomi. Endilikda, JK da **odam savdosi tushunchasi** mustahkamlab qo'yildi va uning turli hil shakllari va holatlar uchun sanksiyalar ham belgilandi.

⁹ <https://lex.uz/docs/-111453#:~:text=135-,%2D,-modda.%20Odam%20savdosi>



Eski tahrirdan farqli tarzda, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish amaliyotlari ham jinoyat ekanligi belgilandi. Bilamizki, odam savdosi bu bir **zanjir**ga o'xshaydi, ya'ni unda shaxsni topadigan ham, sotadigan ham, uni yashirish yoki qabul qilish uchun ham alohida subyektlar ishtirok etadi va endi, ularning barchasi uchun kvalifikatsiya bir moddada aniq belgilandi. **Eksplutatsiyaning bir qancha turlari** ham alohida bandlar orqali tartibga solinadigan bo'ldi (inson a'zolarini olish, fohishalik).

Shuningdek, ayrim **jabrlanuvchilar turlari** og'irlashtiruvchi holat etib belgilandi. Bular jumlasiga, homilador, voyaga yetmagan, ojiz ahvoldagi yoki subyektga moddiy qaram bo'lgan shaxslar ham kiradi. Bu jamiyatning ojiz qismini yanada kuchliroq muhofaza qilishga yordam beradi deb o'ylayman.

Yana bir jihat, bu jinoyatning davlatimiz **hududidan** chiqqanda ham sodir etilishi endi jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi. Bu band jinoyatchilarning javobgarlik masalasini osonroq hal qilishga yordam beradi degan fikrdaman.

Xizmat mavqeyidan foydalangan holda ushbu jinoyatni sodir etish ham alohida og'irlashtiruvchi band sifatida belgilab qo'yildi. Odamlarni chetga ishga yuborish bilan shug'ullanuvchi shaxs, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi yoki maktab va bog'cha xodimlari odam savdosiga o'z vakolatlari va imkoniyatlari tufayli odam savdosiga ko'maklashishi mumkin. Ushbu harakatlar o'z navbatida davlat va organning obro'siga putur yetkzadi va ishonchni pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ushbu shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat o'g'irlashtiruvchi band bo'lishi to'g'ri deb o'ylayman.

Statistika. Milliy Statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlar bazasida Odam savdosi jinoyatining statistikasi mavjud emas. Senatda eshitilgan Ichki Ishlar Vazirligi



mas'ullarining axborotiga ko'ra 2024-yilda odam savdosi jinoyati ortidan 219 nafar shaxsga choralar qo'llanilgan.¹⁰

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi: <https://lex.uz/docs/-111453#-174597>
2. Milliy statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlar bazasi: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati rasmiy sayti: <https://senat.uz/>
4. Qalampir.uz rasmiy sayti: <https://qalampir.uz/uz>
5. Jinoyat huquqi. X.Ochilov. Adolat Toshkent. 2020. <https://library-tsul.uz/ru/jinoyat-huquqi-umumiy-qism-ochilov-x-/>

¹⁰ <https://senat.uz/events/post-3413#:~:text=jinoyatini%20sodir%20etgan,-219,-nafar%20shaxsga%20nisbatan>